

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ 8 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL



ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: <https://scienceproblems.uz>

DOI: 10.47390/SCP1342V3I8Y2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 8 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодида Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Воҳидова Комила Абдуллозизовна*
“ЭЛ БАЙРОҒИ” ГАЗЕТАСИ ҲАҚИДА 11-17
- Сулайманов Саламат Арепбаевич*
ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН МУХТОР ВИЛОЯТИДА ҚУРУҚЛИК ВА СУВ ТРАНСПОРТИ: МУАММО
ВА ЕЧИМЛАР (1924-1932 ЙЙ) 18-24
- Раунов Холмамат*
ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДА УРАН КОНЛАРИНИ ЎЗЛАШТИРИШ ТАРИХИ 25-32
- Мажидов Анвар Сиражович*
ИМПЕРИЯ МУСТАМЛАКАЧИЛИК СИЁСАТИНИНГ ТУРКИСТОН ТУБ ХАЛҚЛАРИНИНГ
ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ВА ФУҚАРОЛИК АҲВОЛИГА ТАЪСИРИ (СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ
МИСОЛИДА) 33-40
- Begatova Nasiba Xolmurzayevna*
FERMER XO‘JALIKLARI VA KLASSTER TIZIMI UCHUN O‘RTA MA‘LUMOTLI MUTAXASSISLARNI
TAYYORLASH TIZIMIDAGI YUTUQLAR VA MUAMMOLAR (SURXONDARYO VILOYATI
MISOLIDA) 41-48
- Алланазаров Мурот Мирзаевич*
БУХОРО ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ НОЗИРЛАР ШЎРОСИ ВА МИЛЛИЙ РАҲБАР
ХОДИМЛАР ФАОЛИЯТИ ХУСУСИДА 49-54
- Ismoilova Feruza Ibragimovna*
URUSH YILLARIDA XOTIN-QIZLARNING ILM-FAN VA MADANIYAT SOHALARIDAGI
XIZMATLARI 55-59
- Tursunov Xurshid Nasriddinovich*
O‘ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIXCHI KADRLAR TAYYORLASH SOHASI
HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI 60-64

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

- Yuldosheva Gulnoza Abdinabiyevna*
THE ROLE OF THE DIGITAL ECONOMY IN MODELING THE FINANCIAL ACTIVITIES OF
ENTERPRISES 65-70
- Oromidinov Muzaffar Pardabayevich*
DIRECTIONS FOR IMPROVING INTERNAL AUDIT IN COMMERCIAL BANKS 71-75
- Худайназарова Дилором Хайруллаевна*
ТЎҒИМАЧИЛИК САНОАТИ КОРХОНАЛАРИНИНГ ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ ДОИРАСИДАГИ
РИСКЛАРИНИ СТРАТЕГИК ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ИСТИҚБОЛЛАРИ 76-84

<i>To'lov Ulug'bek Toshmamatovich, Jo'rayev Sirojiddin Muxiddin o'g'li</i> KO'CHMAS MULKNI SOLIQQA TORTISHDA XORIJIY DAVLATLARDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR	85-92
<i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich</i> MINTAQADA XIZMAT TURLARIDAN SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	93-98
<i>Turobov Sherzod Alisherovich</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA UY XO'JALIKLARI TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT SIYOSATI	99-105
<i>Шамсиев Нодир Муратович</i> МЕТОДЫ ОЦЕНКИ ПОКАЗАТЕЛЕЙ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ ПРИ АНАЛИЗЕ РЕЙТИНГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ИХ КАЧЕСТВЕННОЕ ОПИСАНИЕ	106-110
<i>Zaripova Moxira Zarip qizi</i> AGRAR SOHAGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	111-114
<i>Узайдуллаев Шерзод Шукуруллаевич</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ИННОВАЦИОН ИНФРАТУЗИЛМАНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ОМИЛЛАРИ	115-121
<i>Atabayeva Karomat Rajabovna, Rajabova Maftuna Farhod qizi</i> O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINING RIVOJLANISHI VA TAHLILI	122-127
<i>Жумаева Мухлиса Абдуғани қизи</i> МАМЛАКАТДА АЁЛЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	128-137
<i>Камалов Акмал Сайдакбарович, Саматов Ғаффор Аллақулович</i> ГЕОИҚТИСОДИЙ МУНОСАБАТЛАР ШАРОИТИДА ТРАНСПОРТ ЛОЙИХАЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШГА БЎЛГАН ЁНДАШУВЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ	138-150
<i>Мамадиёров Олимжон Умарович</i> ОЗИҚ-ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИ ТАЪМИНЛАШ НАЗАРИЯЛАРИ ЭВОЛЮЦИЯСИ.....	151-158
<i>Раббимов Жаҳонгир Эшбоевич</i> ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА ОПЕРАЦИОН РИСКЛАРНИНГ МОҲИЯТИ, УЛАРНИНГ ЮЗАГА КЕЛИШ САБАБЛАРИ	159-164
<i>Кулибоев Азамат Шоназарович</i> ДАВЛАТ ТИББИЁТ ТАШКИЛОТЛАРИДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИНГ УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ	165-174

Гадоев Сўҳроб Жумакулович
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ КРЕДИТИНИНГ ТАЪМИНОТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ
ЙЎЛЛАРИ 175-181

Бекжанов Дилмурод Йўлдашович
ЭМПИРИК ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ АСОСИДА ТУРИСТИК ДЕСТИНАЦИОН
МЕНЕЖМЕНТ ЖАРАЁНИ ИШТИРОКЧИЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ БАҲОЛАШ 182-193

09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Boydadayev Abdurroхmon Tolibjon o'g'li
SHARQ VA G'ARB IRRATSIONAL FALSAFASIDA PANTEISTIK QARASHLARNING QIYOSIY
TAHLILI (J.RUMIY VA F.NITSSHE FALSAFASI MISOLIDA) 194-200

Xayridinov Abbosxon Anvarovich
GLOBALLASHUV JARAYONIDA MA'NAVIY MA'RIFIY INQIROZLARNING OLDINI OLISHDA
MARKAZIY OSIYO QADRIYATLARINI YUKSALTIRISH ISTIQBOLLARI 201-205

Quramboyev Alisher Maxsudovich
TEMURIYLAR DAVRIDA IJTIMOY ADOLAT TAMOYILLARINING AMAL QILISHI 206-211

Jo'rayev Alisher Tulqinboyevich
JAMIYAT MILLIY ASOSLARINI MUSTAHKAMLASH – DAVLATNING USTUVOR
MAQSADI..... 212-217

Turabova Sevara Kattaqulovna
ILMIY VAHS FENOMENINING MANTIQUIY- GNOSEOLOGIK MAQOMINI O'RGANISHDA
KONSEPTUAL-METODOLOGIK YONDOSHUV 218-224

Пардаева Марҳабо Давлатовна
АЛИШЕР НАВОЙ АСАРЛАРИДА ИЛМГА ОИД ҚАРАШЛАРИНИНГ НАҚШБАНДИЯ
ҲОЯЛАРИ БИЛАН УЙҒУНЛИГИ 225-233

Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich
NIKON MUNOSABATLARINING TADRIJIY RIVOJLANISHI 234-240

Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna
DINIY MANBALARDA GO'ZALLIK TO'G'RISIDAGI FALSAFIY QARASHLAR 241-246

Юсупова Феруза Зойировна
АХЛОҚИЙ ИДЕАЛ – ЁШЛАР МАЪНАВИЙ ЮКСАЛИШИНING МЕЗОНИ 247-251

Teshaboev Muhiddin Marifovich
IJTIMOIY ADOLATNI TA'MINLASHNING PRINSIPIAL MASALALARI 252-257

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

- Soatova Nodira Isomitdinovna*
LIRO-EPIK ASARLARDA POETIK FIKRNING BADIY IFODASI 258-265
- Narmuratov Zayniddin Radjabovich*
FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR LINGVOMADANIY BIRLIK SIFATIDA 266-269
- Yusupova Omina Muhammadzoi kizi*
DIFFERENT CLASSIFICATION OF FAIRYTALE DISCOURSE IN WORLD AND UZBEK FOLKLORE 270-276
- Бозорова Хулкар Одинакуловна*
РУССКИЙ ЯЗЫК КАК СОСТАВЛЯЮЩАЯ СОДЕРЖАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ 277-282
- Matyakubov Oybek Quralbayevich*
KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA «KONSEPT» TUSHUNCHASI 283-288
- Фатуллаева Камола Рахматуллаевна*
ТЕРМИНЛАРНИНГ БЕЛГИЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ТАСНИФИ 289-293
- Karimjonova Shahlo Ravshanjonovna*
O'ZBEK TILIDA KAUZATIV FE'LLARNING YASALISH USULLARI 294-299
- Xamzayev Otaxon Erkinovich*
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KASB-HUNARGA OIDMAQOLLARNING CHOG'ISHTIRMA Tahlili 300-305

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

- Абдурахманова Нодирахон*
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В СНГ 306-310
- Сафоева Садокат Мусоевна*
ЭКОСИСТЕМА СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ: ИССЛЕДОВАНИЕ РОЛЕЙ ЗАИНТЕРЕСОВАННЫХ СТОРОН В КОНТЕКСТЕ ГРАЖДАНСКОГО ПРАВА 311-320
- Абдуллаева Маликабону Эркин қизи*
ХАЛҚ ТАЪЛИМИ СОҲАСИДА КОРРУПЦИЯНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШГА ОИД АЙРИМ ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИНИНГ ҚИЁСИЙ ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛИ 321-330

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

- Zoirova Lola Xamidovna*
TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA "INSON ORGANIZMINING RADIATSIYAGA SEZGIRLIGI" MAVZUSINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN

FOYDALANISH	331-336
<i>Ibragimov A'lamjon Amrilloevich</i> KOGNITIV SIFATLARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI (MAKTAB PEDAGOG XODIMLARI MISOLIDA)	337-343
<i>Madaminov Azimbek Egamberganovich, Xalillayev O'ktam Sobir o'g'li</i> YOSH GANDBOLCHI DARVOZABONLARNI O'YIN TEXNIKASIGA O'RGATISH	344-349
<i>Fayzullaeva Madina Abdumumin kizi</i> ANALYSIS OF THE POSITIVE IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE MOTIVATION AND KNOWLEDGE OF STUDENTS IN THE DEVELOPMENT OF THE EDUCATIONAL PROCESS	350-355
<i>Джумаева Хулкархан Мухаммаджонова</i> ВНУТРЕННИЕ УГРОЗЫ, НЕГАТИВНО ВЛИЯЮЩИЕ НА ДУХОВНОСТЬ СТУДЕНТОВ..	356-361
<i>Islomova Madina Asqarovna</i> INTEGRATSIYALASHGAN SUN'IY INTELLEKT TOMONIDAN YARATILGAN CHATGPT BOT YORDAMIDA NEMIS TILI O'QITISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	362-368
<i>Raxmatova Mexrinov Majitovna</i> YOSHLAR MA'NAVIY SALOHİYATINI O'RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	369-373
<i>Абдукаюмова Наргиза Райимовна</i> ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ МАДАНИЙ-ИНТЕЛЛЕКТУАЛ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ДИДАКТИК ШАРТЛАРИ	374-384
<i>Norboyev Farxod Chorshanbiyevich</i> KREATIVLIK VA INNOVATSIYA BORASIDA ZAMONAVIY NAZARIYALAR	385-390
<i>Borasheva Aybolgan</i> EXPLORING JAMES MCCROSKEY'S RESEARCH ON WILLINGNESS TO COMMUNICATE IN L1 CONTEXTS: IMPLICATIONS FOR LANGUAGE TEACHING AND LEARNING	391-398
<i>Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna</i> KOGNITIV TADQIQOTLARNING FANLARARO TUSHUNCHA SIFATIDAGI MOHIYATI VA MANTIQUIY TAHLILI	399-409
<i>Boboraximov Sanjar Malikjanovich</i> MAKTABDA O'QUVCHILARNI JISMONIY TARBIYALASHNING ZARURATI VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR	410-414
<i>Salimova Shahlo Sayfulloyevna</i> XAVFSIZ TA'LIM MUHITI MONITORINGINING AHAMIYATI	415-421

<i>Sayfiddinova Jamila Ziyodulla qizi</i> METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF LOGICAL REASONING IN PRIMARY SCHOOL PUPILS	422-427
<i>Xamroyev Samijon Salimovich</i> SPORT TO'GARAKLARI ORQALI TALABALARNING JISMONIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH KOMPONENTLARI	428-433
<i>Kattaeva Feruza Shakirovna</i> DEVELOPING STUDENTS SOCIO-CULTURAL COMPETENCE BY USING SOCIO CULTURAL DISCOURSE ANALYSIS METHOD	434-441
<i>G'ofurov Azizbek Umarjonovich</i> BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA FANI O'QITUVCHILARINI TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	442-447
<i>Abduraximova Umida Shuxratovna</i> BO'LAJAK TARJIMONLARNING LINGVOMADANIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	448-454
<i>Obidova Gulmira Kuzibaevna</i> INGLIZ TILINI O'RGANISH JARAYONIDA TEXNIKA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIDA EKOLOGIK MADANIYAT ASOSLARINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR VA INTERAKTIV METODLAR	455-460
<i>Axmadaliyeva Xosiyatposhsho Abduxayotovna</i> PROFESSINAL TA'LIM YO'NALISHLARIDA TAHSIL OLAYOTGAN O'QUVCHILARNING INGLIZ TILIDAN KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI AUTENTIK MATERIALLAR ORQALI TAKOMILLASHTIRISH	461-469

10.00.00- Филология фанлари

Matyakubov Oybek Quralbayevich

Urganch davlat universiteti akademik litseyi

fransuz tili o'qituvchisi

email: matyakubov.o@mail.ru

KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA «KONSEPT» TUSHUNCHASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada kongnitiv tilshunoslikda «konsept» tushunchasining muhimligi va tarjima qilish usullari hamda muammolari haqida fikr yuritiladi. Nazariy asoslari tadqiq etiladi va ishning dolzarbligi o'rganiladi.

Kalit so'zlar: lisoniy birlik, transliteratsiya, transkripsiya, sarlavha osti izohlar, kalkalash, analogiya, tasviriy tarjima, imo-ishora tarjima, realiya, ekvivalent, lingvokulturema, konsept.

Matyakubov Oybek Kuralbayevich

Senior French language teacher at the academic lyceum

under Urganch State University

THE NOTION OF "CONCEPT" IN COGNITIVE LINGUISTICS

Abstract. This article discusses the importance of the notion of "concept" in cognitivist linguistics and the methods and problems of translation. The theoretical foundations are studied and the relevance of the work is explored.

Key words: linguistic unity, transliteration, transcription, footnotes, copying, analogy, figurative translation, sign translation, reality, equivalent, linguokulturema, concept.

Матякубов Ойбек Куралбаевич

Старший преподаватель французского языка академического

лицея при Ургенчском государственном университете

ПОНЯТИЕ «КОНЦЕПТ» В КОГНИТИВНОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация. На данной статье изложены значение понятия «концепт» в когнитивистской лингвистике, методы и проблемы перевода. Изучаются теоретические основы и выясняется актуальность работы.

Ключевые слова: языковое единство, транслитерация, транскрипция, сноски, копирование, аналогия, образный перевод, знаковый перевод, действительность, эквивалент, лингвокультурема, концепт.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SCP1342V3I8Y2023N40>

Kirish. Inson ongi tobora rivojlanib borar ekan, uning dunyoqarashi, fikri, nuqtai nazari ham takomillashib, kengayib boraveradi. Har bir fanda rivojlanish bo'lgani kabi tilshunoslik

ham kundan-kunga taraqqiy topib, turli yangi oqimlar, yo'nalishlar, yangi ilmiy-nazariy qarashlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Buning natijasida esa tilshunoslikning yangi turlari paydo bo'ldi: psixolingvistika, sotsiolingvistika, etnolingvistika, mentalingvistika, neyrolingvistika, kognitiv lingvistika va h.z.

Kognitivizm – shunday bir yo'nalishki, uni inson axborotni qayta ishlovchi tizim sifatida o'rganadi. Uning xatti-harakati esa insonning ichki holatini ifodalovchi qabul qilish, qayta ishlash, xotirada saqlash, nutqqa tatbiq qilish singari tushunchalar yordamida ifodalanishi lozim bo'ladi.

Kognitsiya (sognition), ya'ni bilish faoliyati axborot (ma'lumot)ni qabulqilish, taqdim etish va yaratish harakatlari hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mutaxassislar kognitologiya fani 1956-yildan boshlab paydo bo'lgan deb hisoblaydilar. Kognitiv tilshunoslik 70-yillarning o'rtalarida fan olamida keng yoyildi: «Kognitologiya turli fan sohalari chorrahasida yuzaga kelgan fandır va uning tadqiqot sohasi «bilimni to'plash va qo'llash usullarini tadqiq qilish» sifatida belgilanadi» [14, 408].

Kognitiv tilshunoslik kognitologiya asosida vujudga keldi. U tilning kognitiv aspekti bilan qiziqadi. Ma'lumki, kognitsiya olamni bilishda inson bilimlarining ongda paydo bo'lish va boyib borish jarayoni ekan, bilimlarni o'zgartirish esa bevosita yoki bilvosita lison bilan aloqada bo'ladi, bog'lanadi. Insonning bilish qobiliyati uning lisoniy qobiliyati bilan hamohangdir. Til eng asosiy muloqot jarayon bo'lganligi sababli, olamni bilishda biz unga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilamiz.

Har bir fanda ma'lum oqimlar bo'lishi tabiiy. O'.Q.Yusupov ayrim oqimlar voqelikni obyektiv aks ettira olmaganligi uchun fan «sahnasi»dan tushib ketadi, ayrimlari voqelikning ko'p tomonlarini obyektiv aks ettira olganligi uchun «umrboqiy» bo'lib qolishini aytadi. Fanlararo bo'lmish kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya fanlarining va millatlararo muloqot nazariyalarining paydo bo'lishi chog'ishtirma tilshunoslikning vazifalarini yanada kengaytirib, o'z oldiga yangi vazifalarni qo'yadi hamda chog'ishtirma tilshunoslikning yangi vazifalari haqida gapirib shunday yozadi: «Voqelik serqirra bo'lganligi bois uning o'rganilmagan yoki o'rganilgan qirralarini yanada chuqurroq o'rganish maqsadida yangi oqimlar paydo bo'laveradi. Kognitiv tilshunoslik esa chog'ishtirma tilshunoslikning vazifalarini kengaytiradi va quyidagi vazifalarni qo'yadi: 1) ikki tildagikonseptlar va ularning ifodalanishini qiyoslash; 2) qiyoslanayotgan tillar bo'yicha olamning lisoniy manzaralarini qiyoslash; 3) ikki millatdagi nutqiy ongni qiyoslash; 4) ikki tildagi birliklarning madaniyatni aks ettirishi bilan bog'liq xususiyatlarini ochib berish» [13, 123].

Kognitiv fan paydo bo'lishi bilanoq, bir necha fanlar o'rtasida o'zining aloqasini o'rnatdi.

Amerikalik psixolog H.Gardiner fanlararo bilimlar qayta ishlanadi va qo'llanilish muammolari yechimini ishlash bilan band bo'lishini qayd qiladi: «Kognitiv fanlar chorrahasida olti fan sohasi tutashishi va yagona bir ilmiy maqsad – tabiiy va sun'iy tizimlarda bilimni jamlaydi» [16, 97].

Miller fikricha, «Kognitiv tilshunoslikning vazifasi, kognitiv strukturalar hamda so'zlovchi-tinglovchi dinamikasini ta'riflash va tushuntirishdan iborat, so'zlovchi-tinglovchi – axborotni qayta ishlovchi sistema hisoblanadi. Tilshunoslik kognitologiya fani shakllanishida asos yoki poydevor bo'lib xizmat qilgan uch soha: 1) insonlarga xos topshiriqlarni bajarish qobiliyatiga ega bo'lgan kompyuter dasturlarining yaratilishi; 2) kognitiv psixologiya doirasida bilish faoliyatining ruhiyatga oid tomonlarining chuqur o'rganilishi; 3) generativ grammatika nazariyasining taraqqiy etishi va ushbu nazariya bilan bog'liq lingvistik yo'nalishlarning paydo bo'lishini qamrab oladi» [18, 292].

S.Yeliassonning qayd etishicha, «... kognitiv qoliplar nutqiy birliklarning mazmun doirasiga ta'sir o'tkazuvchi fonetik hodisalar harakatini «nazorat» qilib boradi, mazmun va shakl o'rtasidagi munosabatlar doirasini aniqlab beradi» [15, 11].

Kognitiv yondashuv asosida til birliklarining kategoriyalarga bo'linishi, tasavvur va

idrok qilish orqali til va dunyoni bilish kabi tushunchalar yotadi.

Kognitiv tilshunoslik sohasi vakillarining fikricha, «moddiy dunyo idroki, ayni paytda, idrok etilayotgan predmet-hodisalar haqida tushuncha tug'ilishini, keyinchalik ushbu tushunchaning mental namuna – konsept sifatida shakllanib, moddiy ko'rinishini taqazo etadi» [9, 41–52].

V.Demyankov shunday deydi: «Kognitiv tilshunoslikda eng faol qo'llanuvchi va turli definitiviyalarga ega bo'lgan termin *konsept* hisoblanadi. Uning kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, adabiyotshunoslik fanlaridagi izohi o'zaro farqlanadi» [3, 35–47].

O'.Q.Yusupov konseptga quyidagicha ta'rif beradi: «Konsept – bu tashqi yoki ichki dunyodagi biror narsa yoki hodisa haqida ongimizdagi bilimlar majmuasi, u haqidagi obrazlar va unga bo'lgan ijobiy, salbiy yokineytral munosabat, ya'ni baholashdir» [13, 123].

D.Ashurovaning ta'kidlashicha, «Konsept – yaxlit mental mohiyatga ega bo'lib, olam tasvirining asosiy qismini tashkil etadi hamda shaxs nutqida alohida madaniy ahamiyat kasb etib, lingvomadaniy muloqotni ta'minlaydi. Konsept xalqaro xarakterga ham ega bo'lib, har bir tilda o'ziga xos birliklar orqali verballashadi» [1, 26 – 33].

D.S.Xudoyberganova fikricha, «Konsept ko'p qirrali va ko'p qatlamli mental tuzilma bir vaqtning o'zida psixologik, kognitiv-semantik va lingvokulturologik jihatlarni bayon etadi» [11, 12 – 19].

Sh.Safarovning o'zbek tilshunosligida kognitiv tilshunoslik haqidagi nazariy qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi. Kognitiv tilshunoslikda «konsept» nimani anglatadi, degan savolga aniq javob topish qiyin. Buning asosiy sababi «konsept» tushunchasining o'ta mavhum hodisa ekanligidir. Sh.Safarovning fikricha: «...konsept»ning zamiridagi «mental struktura» hech qanday moddiy ko'rinishga ega bo'lmay, balki aqliy idrok jarayonida hosil bo'ladigan, tasavvurdagi tuzilma ekanligini unutmaslik lozim. Boz ustiga, «konsept» atamasi «tushuncha», «ma'no», «mazmun» kabi boshqa mental hodisalar bilan yonma-yon turadiki, ayni paytda ularning o'zaro munosabatini aniqlash, farqli belgilarini ajratish muammosi ham paydo bo'ladi» [9, 41–54]. Aytish joizki, konseptning lisoniy moddiylashuvi ong va til tizimi o'rtasidagi bog'liqlikdir. Faoliyatning amalga oshishida lisoniy belgilarning roli alohida e'tiborga loyiq. XVIII asrda yashab ijod etgan mashhur farang mantiqshunosi Eten Bano de Kondilyak bu haqda shunday deb yozgan edi: «Biror bir belgining yordamisiz o'yimizni ma'lum qismlarga ajratolmas edik va shu yo'sinda fikr yuritish voqelikning bo'laklarini alohida ko'rish imkonini berishini anglay olmas edik» [4, 184]. S.Muhamedova kognitiv tilshunoslikning vujudga kelishi, asosiy tushunchalari va yo'nalishlari haqida fikr yuritar ekan, mazkur yo'nalish o'zbek tilshunosligi uchun kognitiv tilshunoslik mutlaqo yangi yo'nalish hisoblanishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, «Konsept kognitiv lingvistikaning markaziy tushunchasi hisoblanadi. Olima konseptni: 1) ontologik, 2) pragmatik, 3) aprior, 4) lingvokreativ, 5) konsept- universalialar, 6) konsept-unikalialar kabi oltita tipga ajratadi» [7, 189 – 193]. U.Chefning ta'biriga ko'ra, «... bu turdagi ta'kidlar va nutqiy muloqotda yangi axborotni oldin ma'lum bo'lganidan («eski» axborot) ajratish kognitiv asosga ega, zero, yangi axborot mazmuniga ega bo'lgan konsept so'zlovchi xotirasida faol holatdadir hamda uning nutqiy - lisoniyvoqelanishi nisbatan osonroq kechadi» [12, 41]. Rey Jakendorfning ta'kidlashicha, «Til konseptual tuzilmalar bilan bog'liqligi sababli ma'no ifodalash qudratiga ega» [17, 68]. Kognitiv tilshunoslikda lisoniy konseptuallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi: «Lisoniy konseptuallashtirish obyektiv voqelik yoki uning biror qismini til vositasida ifodalashdir. Konseptuallashtirish «inson ongida to'plangan» ma'nolarning verballashtirilgan shakli va dunyo haqidagi bilimlarining muayyan til vositasida tizimlashtirilishi bo'lib, qisman universal, qisman milliy xarakterga ega bo'ladi» [8, 55]. Konseptuallashtirish jarayonida matn yaratilishi uchun poydevor yaratiladi. Zero, «... matn ma'lum bir voqelikning inson tomonidan idrok etilishi natijasida yuzaga keladi» [6, 10]. Voqelikni idrok etish uchun inson uning mohiyatini to'la tasavvur etishi yoki anglashi lozim. Faqat shundagina mazmunan aniq va tugal matn yaratiladi. Demak, «Matn, shubhasiz, kognitiv tilshunoslikning tahlil obyekti bo'la oladi hamda

ushbu yo'nalish doirasida uning mazmuniga xos botiniy xususiyatlar, konseptuallashuv jarayonida hosil bo'ladigan mental qolipning tuzilishi o'rganiladi» [2, 30]. Til va shaxs munosabatlarini yoritib berishda eng muhim manba bu matndir. Zero, u tilning barcha sathlarini mujassam etuvchi nutqiy tuzilmabo'lishi bilan birga, so'zlovchi (yozuvchi) shaxsining lisoniy kompetensiyasini o'zida to'liq namoyon etuvchi hodisa hamdir.

Sh.Safarov, «Lison inson mavjudligini, uning ijtimoiy tajriba-faoliyatini ta'minlovchi hodisadir. Demak, lison tadqiqi bilan shug'ullanayotgan kimsa beixtiyor o'zini bilish bilan mashg'uldir, zero, lisoniy faoliyat hodisasining mohiyati – uning ijrochisi – shaxs va ushbu shaxsning ijtimoiy, shaxslararo munosabatga kirishishi bilan belgilanadi. Matn yaratilishida shaxsning kognitiv faoliyatini tadqiq etish o'zbek mentalitetiga xos fikrlash tarzini ham chuqurroq yoritishga xizmat qiladi. Buni shu bilan izohlash mumkinki, matnda konseptuallashgan fikr ayrim hollarda etnik xarakterda ham bo'lishi mumkin» – deya ta'kidlaydi» [9, 85].

Hozirgi kunda matn tilshunosligini o'rganishda D.U.Ashurovaning yangi ilmiy-nazariy yondashuvi va uning bildirgan nazariy fikrlari katta ahamiyatga ega. D.U.Ashurovaning fikricha, «Matn tilshunosligining o'ziga xos xususiyati shundaki, u fanlararo xarakterga ega, matn doirasida hamma tilning nazariy aspektlari bilan (semantika, grammatika, stilistika, sintaksis kabi) kesishadi va ular bilan uzviy aloqada bo'ladi. Matnni tahlil qilish jarayonida uning kommunikativ, kognitiv va lingvomadaniy kabi uch xususiyatini inobatga olish lozim» [1, 30].

Hozirgi vaqtda kognitiv tilshunoslikda keng tarqalgan metodlardan biri freym semantikasi hisoblanadi. «Lingvokognitologiyaga ko'ra, harqanday matn ma'lum bir freym ifodasidir» [10, 40].

Freym nazariyasini yaratgan olimlardan biri M.Minskiy unga shunday ta'rif beradi: «Freym – stereotip vaziyatlarni namoyon qilish usullaridan biri hisoblanib, har qanday freymda ko'p qirrali axborot o'zaro bog'langan bo'ladi» [6, 53]. Binobarin, freym u yoki bu tipik vaziyatning keng hajmli prototipi bo'lib, matn yaratilishi jarayonida kognitiv kontekst vazifasini bajaradi. Bu o'rinda shuni ham aytish lozimki, matn yaratilishi tadqiqida kognitiv strukturalardan biri bo'lgan geshtalt ham muhim o'rin tutadi.

A.E.Mamatovning «Tilga kognitiv yondashuvning mohiyati nimada?» nomli maqolasida, kognitiv tilshunoslik terminlariga (konsept, mikrokonsept, makrokonsept, superkonsept, konseptualizatsiya, kategorizatsiya, konseptosfera, freym, ssenariy, prototip va h.k.) bergan ta'rifi o'zbek tilshunosligida o'ziga xos zaruriy manba bo'lib xizmat qiladi. Olimning fikricha, «Kognitiv tilshunoslikning predmeti til va nutqda aniq konseptlarni aks ettiruvchi leksik, frazeologik birliklar, fikrlar va matnlardir. Konseptning qanday tomonlari, qatlamlari, komponentlari tilning semantik maydoniga kirish, qanday qilib ularni kategoriyalashtirish, ma'lum tilning qaysi qismlarida yuzaga kelishi, namoyon bo'lishi kognitiv lingvistikada o'z aksini topadi. Freym–predmet yoki hodisa to'g'risidagi standart bilimlarning yig'indisini namoyon etuvchi ko'p komponentli konseptdir. Freym bilimning shunday strukturasi bo'lib xizmat qiladiki, u yoki boshqa bir konsept bilan bog'liq bo'lgan tipik va potensial jihatdan ehtimol qilingan asosiy axborotni o'zida mujassam etadi. Ular zaruriyat yuzasidan xotirada saqlanayotgan komponentlardan tashkil topadi» [5, 9 – 10].

Natijalar. Haqiqatan ham, hozirgi zamon tilshunosligida kognitiv yo'nalish fonetik, leksik, semantik sathdagi tahlillar bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Ma'lumki, bilish faoliyati insonning voqelikni bevosita sezishi, his etishi bilan boshlanadi. Sezgi idroki tafakkurda voqelikning ushbu parchasi ramzining shakllanishi uchun zamin tayyorlaydi. Konsept termini matematik logika, madaniyatshunoslik, psixologiya kabi fanlarda faol qo'llaniladi.

Tilshunoslikda olimlar tomonidan kategoriya va konsept tushunchalariga bo'lgan munosabat turlicha, chunki ushbu masala bo'yicha tilshunoslar aniq bir fikrga kelishi muammo bo'lib qolmoqda. Konsept va kategoriya, konsept va ma'no, konsept va tushuncha, konsept va konseptual doira kabi tushunchalarning qo'llanishini chegaralash va ularga aniqlik kiritish shu kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib turibdi.

U yoki bu etnik madaniyat asosida qadriyatlar shakllanadi. «Konsept» tushunchasi, qadriyatlarining xususiyatlarini, ularning haqiqiy hayotdagi oʻrni, qadriyatlar olamidagi tarkibi va boshqa qadriyatlar bilan munosabatini oʻrganadigan fan, aksiologiya tadqiqotlarining predmeti boʻlgan «qadriyat» tushunchasi bilan chambarchas bogʻliqdir.

Muhokama. Konsept va kategoriya orasida oʻxshash va farqli semantik xususiyatlar mavjud:

1. Kategoriya real obyektiv dunyoni anglatib kelsa, bu obyektlar haqidagi tushunchani esa konsept ifodalaydi.

2. Konsept va kategoriyalarning bir xil til boʻlakli til hodisalari bilan iyerarxik munosabatga kirishish yoki kirisha olmaslik xususiyatlariga shubha bilan qarama-qarshi qoʻyishdir.

3. Taʼkidlash lozimki, konseptlar bir-biridan farq qilsa, unda kategoriyalar ularni turli xil holatda maʼlum bir madaniy oʻzaro bogʻiqlik doirasiga birlashtiradi.

4. Konseptlar kategoriyaga nisbatan tilga yaqinroq turadi, chunki ular til maʼnolarini oʻzida aks ettiradi, kategoriyalar esa obyekt, dunyo mohiyatini aks ettiradi.

5. Konsept va kategoriya turli xil til hodisasidir. Konsept tafakkur doirasiga kirib, bilimlar majmuasini, yaʼni inson ongidagi mental leksikonni, konseptual tizimni va til faoliyatini ifodalaydi. Kategoriya ham tafakkur doirasiga kiradi, ammo u til boʻlagini aks ettirmasdan, balki u guruhlarni, yaʼni tajriba rubrikasini va obyektlar majmuasini bildiradi.

6. Konsept va kategoriya oʻzaro oʻxshash tushunchalarni anglatadi.

7. Konsept va kategoriya oʻzaro kesishadigan tushunchalardir.

8. Kategoriya obyektiv olamni anglatadi, konsept esa uning mohiyatini bildiradi. Ikkala tushuncha ham umumiy vazifaga ega.

Matn doimiy harakatdagi va ayni paytda, murakkab tuzilishli va koʻp qirrali tadqiq obyektidir. Matnning oʻziga xos xususiyati shundaki, birinchidan, matn muayyan jihatlariga koʻra boshqa lisoniy birliklardan farq qilsa, ikkinchidan, matn shunday lingvistik hodisaki, u tugallik va yaxlitlik xususiyatlariga ega. Uchinchidan, modallik kommunikativ mazmundagi hodisa boʻlib, u matnning bevosita muloqot jarayonida yuzaga kelish tabiati bilan bogʻliq lisoniy birlikdir.

Xulosa. Maʼlumki, inson boshqa hodisalar singari «ertak» tushunchasini anglashda, idrok qilishda, bilishda qator mantiqiy-ruhiy harakatlarga ega boʻlgan faoliyatni, yaʼni oʻz ongidagi aqliy tahlilni amalga oshiradi. Buning uchun ertak haqidagi ilk mushohadalarini xotirasida qayta tiklaydi, uning xususiyatlariga eʼtibor qaratib, bevosita kuzatishlar orqali unga oid dalillarni toʻplaydi va miyasida jamlab saralaydi. Tilshunoslikda kognitiv tilshunoslikning kundan-kunga rivojlanib borishi mazkur fanning oldiga ikkita katta vazifani qoʻymoqda: 1) lisoniy vositalar yordamida bilimlarni saqlash, ifodalash va uzatish mexanizmlarini qidirib topish; 2) matn va uni idrok etuvchi shaxs omilini oʻrganish tadqiq obyektiga bir vaqtning oʻzida lingvistik, psixologik, pragmatik, kognitiv va ijtimoiy nuqtai nazardan yondashishga daʼvat etmoqda.

Adabiyotlar / Literatura / References:

1. Ашурова Д.У. Новые подходы к лингвистике текста. – Хорижий филология. – №3. – Самарканд. – 2011. –26–33 б.
2. Боймирзаева С. Матн модаллиги. – Т.: Фан, 2010. – 151 б.
3. Демьянков В.З. Понятие и концепт в художественном литературе и в художественном языке. – Вопросы филологии. – М., 2001. –

35–47 с.

4. Кондильяк Э. Б. Сочинения в 3-х томах. Пер. с фр. ; – М. : Мысль, 1980. – 184 с.
5. Маматов А.Э. Языковая картина мира как когнитивный феномен. Хорижий тил таълимининг когнитив-прагматик тамойиллари. – Самарқанд, 2007. – 9–10 б.
6. Минский М. Фреймы для представления знаний. М. :,1979.– 52–55 с.
7. Муҳамедова С. Когнитив лингвистика: вужудга келиши, асосий тушунчалари ва йўналишлари. Систем-структур тилшунослик муаммолари. Республика илмий-назарий конференция материаллари. – Самарқанд, 2010. – 189–191 б.
8. Рыбникова В.А. Языковая концептуализация социума. – Краснодар, 2011. – 55 с.
9. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006.
10. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Т.:Фан, 2013. –34 б.
11. Худойберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини. Док.дисс.....автореферати. – Тошкент., 2015. –12 б.
12. Чейф У.Л. Значение и структура языка. – М., 1975. – 241 с.
13. Юсупов У.К. Теоретические основы сопоставительной лингвистики. –Т.: Фан, 2007. – 123 с.
14. Blackwell Dictionary of Cognitive Psychology, 1990. –408 p.
15. Eliasson Stig. Comparative linguistics. Developments in Language, Cognitive, and Social. "Models and constraints in code-switching theory".1991. –11 p
16. François Villon, Nathalie Denizot, Pierre Loubier, Paul Claudel, Charles Baudelaire. Charles d'Orléans. François Villon, Poésies complètes, éd. C. Thiry, Paris 1991, Le Livre de Poche, "Lettres gothiques» n 4530; ou texte et traduction. Charles d'Orléans. Gardner H. The Mind's New Science: The History of Cognitive Revolution. Harper Collins Basic Books, 1987.– 448 p.
17. Jackendorff R. Foundations of language: brain, meaning, grammar, evolution Text.2004.– 306 p.
18. Miller G.A. Introduction to the Formal Analysis of Natural Languages, the Center for Cognitive Studies, 1964.– 292 p.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 8 (3)-2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).